



**BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA PEDAGOGIK
KOMPETENTLILIGINI TABAQALASHGAN YONDASHUV ASOSIDA
RIVOJLANTIRISH**

Begmatova Nasiba Mengnarovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

***Annotatsiya.** oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining pedagogik kasbiy kompetentligini rivojlantirishda individual yondashuvning didaktik imkoniyatlari o'rganilgan. Ta'lim-tarbiyadagi individual yondashuv, ta'lim oluvchini boshqalardan ajratib individual o'qitishni bildirmaydi, balki shaxsning u yoki bu xislatlarining shakllanishida maxsus sharoitlarni hisobga olish, har bir ta'lim oluvchining individual psixologik xususiyatlarini ilmiy asosda tushunishni anglatadi. Psixologiyada shaxsning individual xususiyatlari deganda bir shaxsni ikkinchi shaxsdan farqlaydigan xususiyatlar tushuniladi. Individual yondashuvning vazifasi – rivojlanishning individual usullarini aniqlash. individual tafakkurda bilimlar subyektivlashadi, o'ziga xos individual jihatlarga ega bo'ladi. Teskari jarayonda individual tasavvur va shaxsiy fikrlar obyektiv ahamiyat kasb etar ekan, bilimlar turli nuqtai nazarlarning to'qnashuvi, bahs-munozara, o'zaro hamkorlikdagi faoliyat natijasida o'zlashtiriladi.*

Zamonaviy ta'limning talablari xususan, «mehnat bozoridagi dinamik o'zgarishlar, insonning nafaqat bilim va ko'nikmalari balki, shaxsiy fazilatlariga bo'lgan talablarning ortishi» kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltirdi, hamda bir qancha olimlar tomonidan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim muammolari o'rganilib, ilmiy asoslari ishlab chiqildi. M.M.Vahobov fikricha «kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim – ta'lim oluvchilarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limdir».

Ta'limda kompetensiyaviy yondashuv «... kompetensiyalardan shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotda uchraydigan turli vaziyatlarda samarali foydalanishga o'rgatishni ko'zda tutadi. Bunda kutilmagan noaniq, yangi, muammoli vaziyatlarga duch kelinganda tegishli bilim, ko'nikma, malakalardan foydalana olishga alohida e'tibor qaratiladi. Shu bois har bir fanni o'qitish jarayonida uning mazmuni hamda xususiyatlaridan kelib chiqqan holda unga doir kompetensiyalar shakllantiriladi».

E.F.Zeyerning fikricha, kompetentli yondashuv – bu ta'lim maqsadlari – vektorlariga ustuvor yo'nalganlik – bu ta'lim olish qobiliyati, o'z-o'zini aniqlash (o'z-o'zini determinatsiyasi), o'z-o'zini aktuallashtirish, ijtimoiylashuv va individualligini rivojlantirish. Mazkur maqsadlarga erishishning instrumental vositalari sifatida umuman yangi ta'lim komponentlari: kompetentlik, kompetensiyalar va ijtimoiy-kasbiy sifatlar – kasbiy ta'limni





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



modernizatsiyalash ko‘rsatkichlari hisoblangan asosiy malakalar xizmat qiladi. Mazkur ko‘rsatkichlar tavsifi V.I.Baydenko ishlarida berilgan.

O.Y.Perseva isbotlashicha, oliy ta’lim tashkilotlariga kompetentli yondashuvni joriy etish vazifasini hal etishning muhim yo‘llaridan biri o‘quv jarayonini faol o‘qitish metodlari asosida izlash va qurish hisoblanadi (keys-stadi, loyihalar texnologiyalari, o‘yinli texnologiyalar, o‘qitishning modulli texnologiyasi, «portfolio» va boshqalar). Uning ta’kidlashicha, mazkur o‘qitish texnologiyalari, metodlari va shakllarining birligi kompetentli yo‘naltirilgan ta’limning texnologik resursini ifodalaydi.

Talabalarining kasbiy ko‘nikmalarini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish mexanizmini pedagog olimlar tomonidan ilmiy asoslangan, ijtimoiy-pedagogik jamoatchiligi sharoitiga mos bo‘lgan innovatsion ta’lim yondashuvlarini yaratish va uni ta’lim-tarbiya amaliyotida qo‘llashga intilib kelmoqdalar[88].

Talabalarining kompetentligini rivojlantirishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni qo‘llash N.A.Alekseyev, YE.V.Bondarevskoy, V.V.Serikov va boshqalarning konsepsiyalariga asosan, haqli hisoblanadi, chunki ta’lim oluvchining shaxsi, uning o‘ziga xosligi, qaytarilmasligi, subyektivligiga asoslangan ta’limni tashkil etishni nazarda tutadi.

Ushbu tadqiqotda oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining pedagogik kasbiy kompetentligini rivojlantirishda sinergetik yondashuv masalalari alohida o‘rganilgan.

XXI asr – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, yangiliklar va innovatsiyalar asridir. Bunday sharoitda, bugungi davr ta’limi o‘zining ko‘p qirraliligi bilan ajralib turishi kerak. Endilikda nafaqat turli sohalarda layoqatli mutaxassislarni yetishtirish, balki insoniyat rivojlanishining istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlay oladigan mutaxassislarni tayyorlash zaruratga aylanmoqda. Bu kabi ko‘zlangan maqsadlarga erishish uchun oliy ta’lim tizimiga o‘qitishning yangi ilmiy-pedagogik asoslarni ishlab chiqish, yanada interfaol bo‘lgan ta’lim usullarini va yondashuvlarni joriy etish lozim bo‘lgan ijtimoiy vazifa qo‘yilgan. Ta’lim-tarbiya jarayonidagi ana shunday yangi yondashuvlardan biri, bu shubhasiz, sinergetik yondashuvdir. Sinergetika atamasi yunoncha sunergeia so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “hamkorlik” ma’nosini anglatadi hamda tashkiliy tuzilmaning (struktura) yaxlit bir butunlikda tashkil bo‘lishida uni tashkil etuvchi elementlarning bir-biri bilan o‘zaro muvofiqlikda va hamkorlikdagi munosabatlarini anglatadi.

Adabiyotlarda sinergetikaning mazmun mohiyati yanada kengroq, ya’ni “Sinergetika – o‘zini o‘zi tashkil etishning zamonaviy nazariyasi bo‘lib, o‘zini o‘zi tashkil etish, nochizlilik, nomuvozanatlik, global evolyusiyalar, “xaosdan tartiblik”ning namoyon bo‘lishi kabi jarayonlarni o‘rganish, bifurkatsiya o‘zgarishlari, vaqtning qaytmasligi, evolyusiya jarayonlarining poydevori tavsifi va hodisalarining kechishi bilan bog‘liq yangi dunyoqarash” sifatida bayon etilgan.

Ba’zi adabiyotlarda zamonaviy ta’lim sinergetik tizim sifatida o‘rganilgan. Bundan tashqari adabiyotlarda talabalarni akmeologik faoliyatga tayyorlashda sinergetik yondashuvdan foydalanishning ahamiyati ham ko‘rsatilib o‘tilgan.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Sinergetikaga G.Xaken tomonidan berilgan ta'rif: "sinergetika – bu murakkab tizimlarda barqaror strukturalarning hamda o'zini o'zi tashkil etishning boshqarishning paydo bo'lishiga olib keluvchi, nihoyatda ko'p tizim qismlarining hamkorlikdagi o'zaro ta'sirlari" deb ta'lqin qilingan.

O'zini o'zi tashkil etishni pedagogik faoliyatda "ishga tushirishning" eng muhim shart-sharoiti bo'lib, tizimda faol o'quv-pedagogik muhitni shakllantirish, ya'ni tizimning ochiqligi va turg'unsizligini hamda uning elementlari o'rtasidagi ichki aloqalarning muntazam ta'minlash hisoblanadi. Tizimda o'zini o'zi tashkil etish jarayoni o'rinli bo'lsa u – ochiq dinamik tizim hisoblanadi. Uning rivojlanishida tizimdagi barcha aloqa manbalari orqali kirib kelgan axborotni qayta ishlash hisobiga faol o'quv-pedagogik muhitning shakllanishi yuz beradi. Sinergetika murakkab tashkil topgan nochiqli, ochiq tizimlarda o'zini o'zi tashkil etuvchi hodisalarni o'rganayotgan boshqa bilim sohalariga ham tegishli bo'lgan, universal metodologik paradigmaga kiradi hamda uning o'rganayotgan predmetlari va obyektlari umumiy fanlararo yondashuvni namoyon etadi.

Pedagogik kompetentlik talabaning kasbiy faoliyati asosi hisoblanadi. Talaba ko'pgina o'quv fanlarini o'rganish uchun asos hosil qiladi va dunyoqarashni, o'ziga, atrof-muhitga, o'quv mehnatiga munosabatni rivojlantiradi. Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining pedagogik kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlarini tashkil etishda quyidagilar inobatga olinali:

– talabalarining muntazam o'zgarib borayotgan jamiyatda zaruriy axborotlar olish va qayta ishlash bilan bog'liq didaktik shart-sharoitlar;

– ijtimoiy-madaniy sharoitga, tarbiya, taraqqiyot, mustaqil ta'lim sohalarida kasb vazifalarini bajarishda qo'l keluvchi, faoliyat yuritishga imkon beruvchi kompetensiyalarni rivojlantiruvchi didaktik shart-sharoitlar;

– talabalarining o'qitish jarayonini samarali yo'lga qo'yishga imkon beruvchi ilm-fanga oid kompetentlikni rivojlantiruvchi didaktik shart-sharoitlar.

Demak, oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining pedagogik kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini ko'rib chiqish muhim. Didaktik vaziyatlar ketma-ketligini yaratish birinchi navbatda, bilimlarni o'zlashtirish jarayonining iyerarxiasini va ikkinchidan, ta'limni taqdim yetish usullarining tegishli kombinatsiyalarini amalga oshirishni ta'minlaydi. Shuningdek, ta'lim oluvchilarning o'rganish jarayonida aqliy faoliyat jarayonini muntazam tartibga solish, uning tarkibiy tuzilmalarini rivojlantirish, o'quv ishlarini rag'batlantirish imkonini beradi.

Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining pedagogik kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlarini o'rganish jarayonida ma'lum bo'ldiki, talabalarining o'z-o'zini rivojlantirish, malaka va mahoratini takomillashtirish hamda istiqbolli didaktik vazifalarga mos amaliy harakatlarni tashkil etishga doir pedagogik relaksatsiyasini yuzaga keltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'zini o'zi rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilib, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda, ularda innovatsion kompetentlikni



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



takomillashtirishda o‘z-o‘zini rivojlantirish tizimining ahamiyati ortib bormoqda. Ayniqsa, oliy ta‘lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish nazarda tutilgan bir qator meyoriy-huquqiy asoslar ham o‘z-o‘zini rivojlantirish orqali ta‘lim jarayoni subyektlari kompetentligini takomillashtirishga qaratilgan.

Bundan kelib chiqib, tadqiqotda talabalarning pedagogik kasbiy kompetentligi o‘z-o‘zini rivojlantirish, malaka va mahoratini takomillashtirish hamda istiqbolli didaktik vazifalarga mos amaliy harakatlarni tashkil etishga doir pedagogik relaksatsiyani yuzaga keltirish asosida takomillashtirilgan.

B.X.Xodjayevning fikricha «kompetensiya o‘quvchining yangi shaxsiy tajribani o‘zlashtirishga doir o‘z-o‘zini rivojlantirishga doir harakatlarini integratsiyalashga xizmat qiladi».

Ilmiy-falsafiy va psixologik tushunchalarni tahlil etish shuni ko‘rsatdiki, ilmiy bilimlar shakllanishining hozirgi zamon bosqichida o‘zini o‘zi rivojlantirish, o‘zini o‘zi tashkil etish, o‘zini o‘zi tarbiyalash, o‘zini o‘zi harakatlantirish va boshqa ko‘plab “o‘zini o‘zi” qo‘shimchasi qo‘shilgan tushunchalardan faol foydalaniladi. “O‘zini o‘zi” atamashunosligini yuzaga kelishi va ularning faol qo‘llanilishi falsafiy, psixologik va pedagogik fikrlashda biror burilish paydo bo‘lganligini ko‘rsatadi. Talabaning o‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi kasbiy o‘zini o‘zi belgilash va o‘zining o‘quv-kasbiy faoliyatini ongli ravishda amalga oshirish asosida o‘zining imkoniyatlarini namoyon etish tajribasi yoki qobiliyati hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Арефьев Р.С. Формирование готовности к самопроектированию коммуникативной компетентности у студентов педагогического вуза: Дисс....канд. пед. наук. - С.: 2004. - 190 с.
2. Абрамян Г.В. Теоретические основы профессионального становления педагога в информационной среде: автореф. дисс. пед. наук. - Санкт-Петербург, 2001. - 39 с.
3. Ангеловски К. Учителя и инновации. Книга для учителя. -М.: Просвещение, 1991, -С.159.
4. Арефьев Р.С. Формирование готовности к самопроектированию коммуникативной компетентности у студентов педагогического вуза: дисс....канд. пед. наук. - С.: 2004. - 190 с.
5. Бадагуева О.Р. Формирование готовности будущего учителя к инновационной деятельности в условиях педагогического колледжа: автореф. ... дисс. пед. наук. -Улан-Удэ, 2006. -24 с.
6. Artiqboyeva Z.A. Malaka oshirish tizimida maktab matematika o'qituvchilarining kasbiy-metodik ko'nikmalarini takomillashtirish: ped.f.n. ... diss. - T.: 2004. - 163 b.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



7. Benjamin Crowell. Newtonian Physics// Light and Matter / Fullerton, California -2012.
Benjamin Crowell Revolution in Physics The Modern Light and Matter Fullerton, California-
2012.

8. Давыдов В.В. Проблемы развивающего обучения. /Результаты
экспериментальных исследований. -М.: Директ-Медиа Паблишинг, 2008. -613 с.

9. John Dirk Walecka. Introduction to Modern Physics// College of William and Mary:/
USA ,Jul -2008.

10. Karlibayeva G.YE. Bo'lajak fizika o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini
takomillashtirish: pedagogika fanlari doktori (DsS) diss. avtoreferati. -T.: 2018. -58 b.

